

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI QOSHIDAGI
PhD/37/27.02.2020.Yu.107.01 RAQAMLI ILMiy KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI**

ABDULLAYEV BOYMUROD JO‘RAYEVICH

**HUQUQIY TA‘SIR CHORALARINI QO‘LLASH TO‘G‘RISIDAGI ISH
YURITISHNI PROTSESSUAL-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH
MASALALARI**

12.00.04 – Fuqarolik protsessual huquqi. Iqtisodiy protsessual huquqi.
Hakamlilik jarayoni va mediatsiya

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Abdullayev Boymurod Jo‘rayevich

Huquqiy ta’sir choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi ish yuritishni protsessual-huquqiy tartibga solish masalalari.....3

Абдуллаев Боймурод Жураевич

Вопросы процессуально-правового регулирования производства по применению мер правового воздействия.....23

Abdullayev Boymurod Jurayevich

Issues of procedural and legal regulation of proceedings on the application of legal impact measures44

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works48

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI QOSHIDAGI
PhD/37/27.02.2020.Yu.107.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI**

ABDULLAYEV BOYMUROD JO‘RAYEVICH

**HUQUQIY TA‘SIR CHORALARINI QO‘LLASH TO‘G‘RISIDAGI ISH
YURITISHNI PROTSESSUAL-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH
MASALALARI**

12.00.04 – Fuqarolik protsessual huquqi. Iqtisodiy protsessual huquqi.
Hakamlilik jarayoni va mediatsiya

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Yu480 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Oqyulov Omonboy

yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mamasiddiqov Muzaffarjon Musajonovich

yuridik fanlar doktori, professor

Xabibullayev Davlatjon Yulchiboyevich

yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi qoshidagi PhD.37/27.02:2020.Yu.107.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 20-dekabr kuni soat 14:30 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100097 Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Cho‘ponota ko‘chasi, 6-uy. Tel.: (99855) 501-01-89, e-mail: sudyalaroliymaktabi@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Sudyalari oliy maktabida tanishish mumkin (31-24-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100097 Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Cho‘ponota ko‘chasi, 6-uy, Tel: (99855) 501-01-89, e-mail: sudyalaroliymaktabi@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 5-dekabr kuni tarqatildi.
(2024-yil 5-dekabrda 13-raqamli reyestr bayonnomasi).

I.I.Nasriyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, professor

O.B.Shamsiddinova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

F.X.Otaxonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda tadbirkorlik sub'yektlarining tovarlar ishlab chiqarish va sotish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatishiga talab ortib bormoqda. Tadbirkorlik faoliyati muayyan huquqiy maydonda, tegishli talablar va taomillarga rioya qilingan holda amalga oshiriladi. Odatda, bunday talablar ommaviy huquqiy normalarda mujassamlashgan bo'ladi. Ushbu talablar va taomillarga rioya qilmaslik (soliq, bojxona, ekologiya, sanitariya va h.k.) mamlakat huquq tartibot asoslariga, boshqaruv tizimiga, fuqarolar manfaatlariga jiddiy putur yetkazishi mumkin. Shu sababli ham butun dunyoda tadbirkorlik sub'yektlariga nisbatan muayyan huquqbuzarliklar uchun ma'muriy, moliyaviy, huquqiy sanksiyalar qo'llaniladi. Masalan, AQSH moliya vazirligi tomonidan qo'llaniladigan moliyaviy sanksiyalar butun dunyoga mashhur. Albatta, uning huquqiy tabiati to'g'risida chuqurlashmagan holda aytish mumkinki, bunday choralar huquq tartibot va qonunchilik tizimini mustahkamlashning muhim segmenti bo'lib hisoblanadi. Yurtimizda va qator MDH mamlakatlarida bunday choralar huquqiy ta'sir choralari nomi bilan mashhur. Bu esa, huquqiy ta'sir choralari qo'llash to'g'risidagi ishlarni yuritishni protsessual-huquqiy tartibga solish masalalarini tadqiq etish va uni zamon talablariga muvofiq takomillashtirib borish, xalqaro miqyosda sa'y-harakatlar va ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini ko'rsatmoqda.

Jahonda globallashuv sharoitida huquqiy ta'sir choralari qo'llash to'g'risidagi ishlarni yuritishni protsessual-huquqiy tartibga solish masalalarini tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bois ma'muriy organning tadbirkorlik sub'ektiga nisbatan huquqiy ta'sir choralari qo'llash, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, protsessual-huquqiy tartibga solish muammolarini kompleks tarzda o'rganishni va ularga yechim berishni, huquqiy ta'sir choralari qo'llashga doir huquqni qo'llash amaliyotini va qonunchilikni takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir.

Mamlakatimizda tadbirkorlik sub'yektlariga nisbatan huquqiy ta'sir choralari qo'llash ma'muriy tartibda ham, odil sudlov tartibida ham amalga oshiriladi. Huquqiy ta'sir chorasini ma'muriy tartibda vakolatli organ tomonidan qo'llanilganda ham, tadbirkorlik sub'yekti bu qaror ustidan sudga murojaat qilishga haqli. Binobarin, moddiy huquq ham, uni qo'llashning tartib taomillari ham iqtisodiy-protsessual huquqining nazariy va amaliy muammolaridan hisoblanadi. Shu boisdan, "...huquqiy ta'sir choralari qo'llashda mutanosiblikni ta'minlash bo'yicha konstitutsiyaviy prinsipni ro'yobga chiqarish maqsadida qonun hujjatlaridagi 150 dan ortiq ana shunday choralar to'liq qayta ko'rib chiqiladi. Jumladan, ayrim qilmishlarni jinoyatlar toifasidan chiqarish va jazo turlarini o'zgartirish, fuqaroviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma'muriy javobgarlikni bekor qilish borasida huquqiy islohotlar amalga oshirilishi"¹ muhim ahamiyatga ega.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-dekabrda Konstitutsiya kuni munosabati bilan O'zbekiston xalqiga bayram tabrigi. <https://president.uz/uz/lists/view/6917>

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksida (2018), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 iyundagi “Tadbirkorlik sub’yektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–3619-son, “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmonlari va sohaga oid boshqa qonun hujjatlarining amalga oshirilishida muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz protsessualist olimlaridan Sh.Shoraxmetov, H.Rahmonqulov, I.Zokirov, O.Oqyulov, F.Otaxonov, M.Abdusalomov, M.Mamasiddiqov, Z.Esanova, D.Xabibullayev, F.Ibratova, Q.Avezov, I.Salimova, N.Azizovlar²ning tadqiqot ishlarida huquqiy ta‘sir choralari qo‘llash to‘g‘risidagi ish yuritishni protsessual-huquqiy tartibga solishning ayrim jihatlari o‘rganilgan.

Xususan, I.Salimova “Iqtisodiy nizolarning taalluqliligi (nazariy-huquqiy va protsessual jihatlari)” (PhD, 2020) nomli tadqiqot ishida huquqiy ta‘sir choralari qo‘llash to‘g‘risidagi ishlarning ma‘muriy sudga taalluqli bo‘lishini ilgari suradi. Biroq, mavjud doktrina, huquqiy tadqiqotlar tahlili esa, huquqiy ta‘sir choralari doir ishlarni protsessual huquq, sud jarayoni natijasida qaror qabul qilish orqali hal qilishni nazarda tutadi.

Q.Avezovning “Iqtisodiy protsessda taraflarning huquqiy maqomini takomillashtirish”ga (PhD, 2020) doir ilmiy tadqiqoti o‘z navbatida da‘vogar va javobgarning protsessda ishtirok etishining ilmiy-nazariy muammolari, protsessual o‘ziga xoslik, ularning huquqiy maqomini aniqlashtirish zaruratini qamrab oladi. Biroq, ushbu tadqiqot ishlari bevosita huquqiy ta‘sir choralari protsessual huquqda tatbiq etilishining ilmiy muammolarini to‘laqonli qamrab olmaydi.

Shuningdek, mazkur sohada MDH davlatlari olimlaridan V.V.Kojevnikov, M.V.Martynov, A.I.Kaplunov, Ye.K.Sherbakova, M.S.Karpov, G.A.Sverdlyk, E.L.Strauning, S.S.Vabishyevich, T.V.Saxnova, G.L.Osokina, V.V.Yarkov, P.F.Yeliseykin, N.V.Suxareva, D.Karpuxin va boshqalar iqtisodiy sud ishlarini yuritishda ishtirok etuvchi shaxslar, sub’ektlar, moddiy va protsessual nizo mohiyati borasida ilmiy izlanishlar olib borgan.

Xorijlik olimlardan esa Peksen Dursun, Yeazell, Stephen C., Joanna C.Schwartz, Maureen Carroll, Minow M.L., Brodin M.S., Lahav, A.D., Subrin S.N., Main T.O.Sime Stuart, Lang M., Pistone P., Yeazell S.C., Rühl G., Munday R., Herd, P., Moynihan D.P., Heinrich Carolyn J., Valente Piergiorgio, Madison,

² Ushbu va boshqa olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

Allen D. va boshqa olimlar huquqiy ta'sir ko'rsatish sub'ektlari, tadbirkorlar huquq va manfaatlarini himoya qilish masalalarini tadqiq etgan.

Biroq, yuqoridagi olimlarning ishlari asosan huquqiy ta'sir ko'rsatishning umumiy jihatlari bilan bog'liq bo'lib, ularda huquqiy ta'sir chorasini qo'llashning muayyan qirralari o'rganilgan. Shu sababli huquqiy ta'sir choralari qo'llash to'g'risidagi ish yuritishni protsessual-huquqiy tartibga solish masalalarini ilmiy jihatdan kompleks tahlil qilish, uni zamon talablari asosida takomillashtirishga oid tadqiqot olib borish dolzarb hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida olib borilgan "Huquqiy ta'sir choralari qo'llash to'g'risidagi ish yuritishni protsessual huquqiy tartibga solish masalalari" (2020–2023) mavzusidagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi huquqiy ta'sir choralari qo'llash to'g'risidagi ish yuritishni protsessual huquqiy tartibga solish bilan bog'liq muammolarni aniqlash hamda xorijiy mamlakatlar tajribasini qiyosiy-huquqiy tahlil qilish orqali mazkur muammolarni hal etishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- huquqiy ta'sir choralari tushunchasi va ahamiyatini ochib berish;
- huquqiy ta'sir choralari qo'llashning protsessual asoslari, zaruriyati va uning protsessual vositalar tizimida tutgan o'rnini aniqlash;
- huquqiy ta'sir chorasini qo'llash haqida sudga murojaat qilish va ishni qo'zg'atish asoslarini o'rganish;
- huquqiy ta'sir chorasini qo'llash bilan bog'liq ishlarni sudda ko'rib chiqishda dalillar va isbotlash vositalarini ochib berish;
- huquqiy ta'sir choralarni qo'llashga oid ishlarni sudda ko'rib chiqish va hal qiluv qarorini chiqarish tartibi hamda kelishuv bitimining mohiyatini tahlil etish;
- huquqiy ta'sir choralari qo'llash to'g'risidagi qaror ustidan shikoyat qilish asoslari va tartibini o'rganish;
- huquqiy ta'sir choralari qo'llash to'g'risidagi qarorlarning ijrosini ta'minlashni ochib berish;
- huquqiy ta'sir choralari qo'llashning zamonaviy tendensiyalarini o'rganish hamda qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'yekti huquqiy ta'sir choralari qo'llash to'g'risidagi ish yuritishni protsessual huquqiy tartibga solish bilan bog'liq huquqiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini huquqiy ta'sir choralari qo'llash to'g'risidagi ish yuritishni protsessual-huquqiy tartibga soluvchi qonunchilik normalari hamda ilmiy-nazariy jihatlari, ularni qo'llash bilan bog'liq huquqni qo'llash va sud amaliyoti muammolari, shuningdek xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va tajribasi, yuridik fanda mavjud konseptual yondashuvlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni olib borishda tarixiy va tizimli usul, analiz va sintez usuli, qiyosiy-huquqiy va tahlil qilish usuli, normativ-huquqiy va amaliy tahlil usuli, umumlashtirish, mantiqiylik, tahlil qilish metodi asosida rasmiy hujjatlar va ma'lumotlarni tizimli o'rganish hamda xorijiy qiyosiy tahlil kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yuridik shaxslar va fuqarolarga nisbatan huquqiy ta'sir choralari qo'llash to'g'risidagi ishlar ko'rib chiqilayotganda huquqiy ta'sir choralari qo'llash uchun asos bo'lgan holatlarni isbotlash majburiyati nazorat qiluvchi organ zimmasiga yuklatilishi haqidagi taklif asoslab berilgan;

korporativ nizolar bo'yicha ishlar, huquqiy ta'sir choralari qo'llash to'g'risidagi ishlar soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqilmasligi asoslantirilgan;

banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish to'g'risidagi arizaga – soliq tekshiruvini o'tkazishga soliq to'lovchi tomonidan to'sqinlik qilinganligini yoki soliq to'lovchi daromadlar olish uchun foydalanayotgan yoxud soliq solish ob'yektini saqlash bilan bog'liq hududlarni, binolarni, shu jumladan joylarni ko'zdan kechirish uchun davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxslarini kiritish rad etilganligini tasdiqlovchi dalil sifatida e'tirof etish haqidagi taklif asoslantirilgan;

huquqiy ta'sir chorasini qo'llash to'g'risidagi ish bo'yicha kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzilishiga yo'l qo'yilmasligi asoslantirib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilar iborat:

sudga huquqiy ta'sir choralari qo'llashni so'rab murojaat qilish huquqi vujudga kelishining asosiy shartlaridan biri bu, - huquqiy manfaatdorlikning mavjudligidan kelib chiqishi asoslantirilgan;

ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqib, ishlar: 1) arizachining ishdan yuridik manfaatdorligi bo'lmasa; 2) arizachi sudga murojaat qilgan taqdirda, sudning qarori uning sub'yektiv manfaatlari, huquq va erkinliklariga ta'sir qilmaydigan bo'lsa; 3) talab nizoli bo'lmasa sudlarda ko'rib chiqilmasligi lozimligi asoslantirilgan;

ommaviy-huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan huquqiy ta'sir choralari ushbu ta'sir choralari bo'yicha yuridik manfaat ham huquq va erkinliklarni himoya qilishdan, ham davlat manfaatlarini himoyalashdan iborat bo'lishi mumkinligi asoslab berilgan;

huquqiy ta'sir choralari qo'llashga doir ishlar iqtisodiy protsessdagi da'vo ishlaridan sezilarli darajada farqlanishi, shu bilan birga ma'muriy protsessdagi arizalardan ham farqli bo'lib, ma'muriy ishlarda davlat organi (mansabdor shaxslari) harakat (harakatsizligi) ustidan nizolashilsa, huquqiy ta'sir choralari qo'llashda ma'muriy munosabatlarning qarshi tarafidagi zaif tomon – yuridik yoki jismoniy shaxslar harakatlari bo'yicha nizolashilishi asoslab berilgan;

fuqarolik huquqida huquqiy ta'sir choralari qo'llash, avvalo, majburiyatlar bajarilishini ta'minlash usullaridan samarali foydalanish, o'z huquqlarini himoya qilishda yurisdiksiyaviy yoki noyuridsiksiyaviy usullarni qo'llash, shuningdek

huquqni o‘zi yoki sud orqali himoya qilish huquqini amalga oshirishni talab qilishi asoslantirilgan;

huquqiy ta’sir chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi ish yuritishning asosiy xususiyatlari: 1) ishlarning maxsus ro‘yxati mavjudligi; 2) nizo predmeti ommaviy huquqqa oid ekanligi; 3) himoya qilish usuli – ma’muriy hujjatlar qonuniyligi va asosligini tekshirish ekanligi; 4) bu toifadagi ishlarda sud majlisining o‘ziga xos xususiyatlarga egaligi asoslantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olingani, xalqaro tajriba va milliy qonun hujjatlarining o‘zaro tahlil qilingani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli organ tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya ishining ilmiy ahamiyati huquqiy ta’sir chorasini qo‘llashning bugungi kundagi holati, ularni qo‘llashni o‘rganishda, hozirgi zamon tendensiyalarini inobatga olgan holda huquqiy ta’sir chorasi bilan bog‘liq o‘quv mashg‘ulotlari doirasida foydalanishda hamda sohaga doir muammolar yuzasidan yangi ilmiy tadqiqotlar olib borishda namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalaridan O‘zbekiston Respublikasining huquqiy ta’sir chorasini qo‘llashga doir qonunchiligini takomillashtirishda, “Iqtisodiy protsessual huquq” fanlarini o‘qitishda va ushbu fanlar bo‘yicha yoziladigan darsliklar hamda o‘quv qo‘llanmalarini yaratishda hamda ma’ruza matnlarini, o‘quv kurslarining dasturlarini tuzishda, ilmiy-tadqiqot ishlarida hamda fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Huquqiy ta’sir choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi ish yuritishni protsessual-huquqiy tartibga solish masalalari bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

yuridik shaxslar va fuqarolarga nisbatan huquqiy ta’sir choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi ishlar ko‘rib chiqilayotganda huquqiy ta’sir choralarini qo‘llash uchun asos bo‘lgan holatlarni isbotlash majburiyati nazorat qiluvchi organ zimmasiga yuklatilishi haqidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi 68-moddasining ikkinchi qismini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitasining 2022-yil 5-sentyabrdagi № 04/2-10/4009-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi huquqiy ta’sir choralarini qo‘llash uchun asos bo‘lgan holatlarni isbotlash majburiyatini bajaruvchi sub’yektni aniqlashga xizmat qilgan;

korporativ nizolar bo‘yicha ishlar, huquqiy ta’sir choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi ishlar soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko‘rib chiqilmasligi haqidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 203²-moddasini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitasining 2022-yil 5-sentyabrdagi № 04/2-10/4009-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi huquqiy ta’sir choralarini qo‘llash

to'g'risidagi ishlar soddalashtirilgan tartibda ko'rilmasligiga asos bo'lib xizmat qilgan;

banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish to'g'risidagi arizaga – soliq tekshiruvini o'tkazishga soliq to'lovchi tomonidan to'sqinlik qilinganligini yoki soliq to'lovchi daromadlar olish uchun foydalanayotgan yoxud soliq solish ob'yektini saqlash bilan bog'liq hududlarni, binolarni, shu jumladan joylarni ko'zdan kechirish uchun davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxslarini kiritish rad etilganligini tasdiqlovchi hujjatni dalil sifatida e'tirof etish haqidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 219-moddasi uchinchi bandini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasining 2022-yil 5-sentyabrdagi № 04/2-10/4009-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi huquqiy ta'sir choralari qo'llash to'g'risidagi ishlarda dalillarni taqdim etishning qonunchilikda belgilanishiga xizmat qilgan;

huquqiy ta'sir chorasini qo'llash to'g'risidagi ish bo'yicha kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzilishiga yo'l qo'yilmasligi haqidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 221-moddasi to'rtinchi qismini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasining 2022-yil 5-sentyabrdagi № 04/2-10/4009-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi huquqiy ta'sir choralari qo'llash to'g'risidagi ishlarda kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzish doirasini belgilashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning natijalari 5 ta jumladan 2 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot ishi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan 6 ta ilmiy maqola (3 ta respublika, 3 ta xorijiy jurnallarda), to'plamlarda 5 ta ilmiy maqola va tezislar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, sakkizta paragrafdan iborat uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 143 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish (dissertatsiya annotatsiyasi)** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'yekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning **“Huquqiy ta’sir choralari qo’llashning protsessual asoslari, zaruriyati va mohiyati”** nomli birinchi bobida huquqiy ta’sir choralari tushunchasi va ahamiyati, huquqiy ta’sir choralari qo’llashning protsessual asoslari, zaruriyati milliy va xorijiy mualliflarning fikrlari hamda bir qator rivojlangan xorijiy davlatlarning qonunchiligi va milliy qonunchiligimiz asosida tahlil qilingan.

Xalqaro miqyosda huquqiy ta’sir yoki turli xil sanksiyalar qo’llash amaliyoti davlat siyosatining muhim vositasiga aylangan. So‘nggi yillarda sanksiyalar ko‘lami kengayishda davom etmoqda. Uning asosiy maqsadi sanksiya qo‘llanilgan tarafning faoliyatini to‘xtatish, ishontirish yoki qo‘rqitish kabi turli yo‘nalishlarni nazarda tutadi. Bu o‘z navbatida davlatlar uchun strategik rejalashtirishga ta’sir qilmoqda.

Iqtisodiy protsessda huquqiy ta’sir choralari qo’llashda xalqaro darajada tan olingan prinsiplar sifatida manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik, huquqiy aniqlik (kutildagan huquqiy natijalar), diskreminatsiyaga yo‘l qo‘ymaslik, huquq ustuvorligi kabilar amal qiladi. Mazkur prinsiplar milliy qonunchilik mazmunida ifodalanishi huquqiy ta’sir chorasini qo’llashga doir nizolarni adolatli hal qilishga imkon beradi.

Iqtisodiy protsessda huquqiy ta’sir choralari qo’llashda “mutanosiblik prinsipi” amal qiladi. Mazkur prinsip o‘zida javobgarlikning muqarrarligi bilan bir qatorda bir huquqbuzarlik uchun takroran javobgarlikka tortish hamda sodir etilgan huquqbuzarlikning tabiatiga mos bo‘lmagan ortiqcha javobgarlikni qo’llashning oldini oladi.

Tadbirkorlik faoliyatini nazorat qilish, tekshirish, chora qo’llash muayyan davlat organi vakolatiga taalluqli masala hisoblanadi. Biroq, buning natijasi sifatida garchi, ayrim hollarda muayyan huquqiy javobgarlik chorasini kelib chiqsada, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va to‘laqonli huquqiy ta’sir chorasini qo’llash imkonsiz.

Fikrimizcha, huquqiy tartibga solish va huquqiy ta’sir ko‘rsatish o‘z xususiyatlari bilan farqlanadi. Avvalo, ulardan har biri o‘ziga xos maqsadni ko‘zlaydi. Huquqiy ta’sir insonlarni huquqiy tarbiyalash, uning huquqiy madaniyatini oshirish, muayyan huquqiy yondashuvlarni aniqlashga qaratiladi. Huquqiy tartibga solish esa, nisbatan tor maqsadni, ya’ni ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishni ko‘zlaydi.

Huquqiy ta’sir choralari qo’llash turli sub’yektlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Huquqiy ta’sir ko‘rsatishni belgilovchi norma mavjud bo‘lsada u samara bermasligi mumkin. Binobarin, huquqiy ta’sir ko‘rsatish muayyan huquqiy mexanizmlar mavjud bo‘lishini taqozo qiladi. Rus olimasi E.K.Sherbakova mexanizmning amal qilishi huquq normasidan boshlanmaydi, deb hisoblaydi. Biroq, bizning fikrimizcha muayyan bir tartib aynan huquqiy norma asosida amalga kiritiladi. Huquq normasini majburiy qo’llashdan ko‘zlangan asosiy maqsad samaradorlik va natijali ta’sir ko‘rsatish hisoblanadi.

Tadbirkorlik faoliyati sub’yektlari tomonidan yo‘l qo‘yilgan huquqbuzarliklar uchun huquqiy ta’sir choralari qo’llashda birinchi instansiya sudlari tomonidan

ayrim holatlarga tegishli huquqiy baho berilmasligi natijasida ish Oliy sudga hal qilinib, tegishli huquqiy ta'sir chorasini qo'llanilganligi amaliyoti ham uchraydi.

Sud tomonidan huquqiy ta'sir chorasini qo'llashda, albatta, ma'muriy-huquqiy ta'sir chorasini qo'llash borasida nizo mavjud bo'ladi va javobgar taraf ma'muriy organ tomonidan berilgan ko'rsatma, buyruq, qarorni o'z vaqtida va lozim darajada ijro etmaydi. Natijada davlat organi majburlash mexanizmini sud orqali qo'llash maqsadida sudga ariza bilan murojaat qiladi hamda ma'muriy organ va tadbirkor o'rtasidagi huquqiy ta'sir chorasini qo'llash borasidagi nizo mazmunan ko'rib chiqiladi.

Huquqiy ta'sir chorasini qo'llash huquq sohalarida farqlanadi. Masalan, fuqarolik huquqida ta'sir choralari qo'llash avvalo, majburiyatlar bajarilishini ta'minlash usullaridan samarali foydalanish, o'z huquqlarini himoya qilishda yurisdiksiyaviy yoki noyurisdiksiyaviy usullarni qo'llash, shuningdek huquqni o'zi yoki sud orqali himoya qilish huquqini amalga oshirishni taqazo etadi.

Huquqiy ta'sir tushunchasi keng qamrovli bo'lib, har bir huquq sohasida predmet va mohiyatdan kelib chiqqan holda tatbiq etilishi nazarda tutiladi. Bugungi kunda huquqiy ta'sir choralari qo'llash garchi ham ma'muriy, ham iqtisodiy nizolarga dahldor masala bo'lsada, nazorat qiluvchi organlar tomonidan faqat iqtisodiy sudlarga murojaat qilish orqali amalga oshiriladi. Sub'yektga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari doirasi ochiq bo'lib, huquqiy ta'sir chorasini har bir alohida nizing mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda sud tartibida qo'llaniladi.

Ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarning bir turi sifatida huquqiy ta'sir choralari qo'llash to'g'risidagi ishlarni yuritish deganda, davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari, mansabdor shaxslar faoliyatini tekshirish, shu jumladan, ular tomonidan qabul qilingan normativ va normativ bo'lmagan hujjatlarning qonuniyligini tekshirish imkonini beradigan, ma'muriy javobgarlikka tortadigan, majburiy to'lovlar va jarimalarni qo'llaydigan, tadbirkorlik faoliyatiga huquqiy ta'sir ko'rsatuvchi odil sudlov faoliyati tushuniladi.

Huquqiy ta'sir choralari qo'llash turli huquq tizimlarini o'rganish natijasida o'ziga xosliklar aniqlandi. Jarima tarzidagi huquqiy ta'sir chorasini qo'llash har doim ham o'zini oqlamasligi, ayrim mamlakatlarda ta'qiq qo'yilgani (islom huquqida) qayd etiladi. Shunday bo'lsada, huquqiy ta'sir chorasini javobgar tarafni to'g'ri faoliyat yuritishga undashi, zarur hollarda davlatning majburlov kuchidan foydalanish (sud qarorini ijro etish), majburiy yig'implarni undirish va boshqa shu kabi holatlarda qo'llanilishi muayyan samara beradi.

Huquqiy ta'sir choralari qo'llashning protsessual asoslari nazorat qiluvchi organlarning sudga qilgan murojaatlari hisoblanadi, moddiy asos esa, huquqbuzarlikdir. Huquqiy ta'sir choralari qo'llashning zaruriy sharti aybning mavjudligidir. Yuridik shaxsning aybiga kelsak, u xodimning mehnat funksiyalarini bajarishi bilan bog'liq aybli harakatlarida ifodalanishi mumkin. Agar aybli harakat alohida xodimning aybi bilan sodir etilmagan bo'lsa, u yuridik shaxsning turli bo'linmalari zimmasida bo'ladi. Biroq, har qanday holatda ham yuridik shaxsning aybi alohida shaxsning emas, balki butun jamoaning aybi

hisoblanadi, chunki yuridik shaxs tomonidan to'liq yoki qisman qoplangan zararni alohida aybdor shaxslar zimmasiga yuklash mohiyatan hech narsani o'zgartirmaydi.

Huquqiy ta'sir choralarining zaruriyati va ularning sud tomonidan qo'llanishi shu holat bilan izohlanadiki, yuridik shaxs yoki fuqaro tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar talablari buzilganligini tasdiqlovchi dalillarni nazorat qiluvchi organlar tomonidan sudlarga taqdim etilishi tadbirkorlar huquqlarini ta'minlashga keng yo'l ochadi. Chunki hozirgi kunda soliq va boshqa nazorat qiluvchi organlar tomonidan asossiz ravishda va ortiqcha miqdorda soliq va jarimalarning hisoblanishi kabi holatlar uchrab turibdi. Ushbu holatlarning oldini olish uchun esa, mazkur masalalarni sudda hal qilish ancha samarali hisoblanadi. Shuningdek, yuridik shaxslar va fuqarolarga nisbatan huquqiy ta'sir choralarini qo'llash to'g'risidagi ishlar ko'rib chiqilayotganda huquqiy ta'sir choralarini qo'llash uchun asos bo'lgan holatlarni isbotlash majburiyati nazorat qiluvchi organ zimmasiga yuklatiladi.

Protsessualist olimi I.Salimova o'z tadqiqot ishida tadbirkorlik sub'ektlariga huquqiy ta'sir choralarini qo'llash to'g'risidagi ishlarning ma'muriy sudga taalluqli bo'lishi g'oyasini ilgari suradi. Biroq, mavjud doktrina, huquqiy tadqiqotlar tahlili esa, huquqiy ta'sir choralariga doir ishlarni protsessual huquq, sud jarayoni natijasida qaror qabul qilish orqali hal qilishni nazarda tutadi. Binobarin, huquqiy ta'sir choralarini qo'llash to'g'risidagi ishlar ma'muriy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga asoslansada, uning asl tub mohiyati tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liqligi sababli ushbu toifadagi ishlar iqtisodiy sudlar vakolatida bo'lishi lozim bo'lib, ma'muriy sudlar vakolatiga o'tkazish maqsadga muvofiq emas. Chunki huquqiy ta'sir choralarini qo'llash to'g'risidagi ishlarda bir taraf sifatida, albatta, tadbirkorlik faoliyati sub'yekti turadi. Bunda sud tomonidan qabul qilinadigan qaror bevosita mamlakat iqtisodiy hayotiga ta'sir qilishini e'tiborga olish lozim.

Dissertatsiyaning **“Huquqiy ta'sir choralarini qo'llash bilan bog'liq nizolarni ko'rib chiqish va qaror qabul qilish”** nomli ikkinchi bobida huquqiy ta'sir chorasini qo'llash haqida sudga murojaat qilish va ishni qo'zg'atish asoslari, huquqiy ta'sir chorasini qo'llash bilan bog'liq ishlarni sudda ko'rib chiqishda dalillar va isbotlash vositalari, ta'sir choralarini qo'llashga oid ishlarni sudda ko'rib chiqish va hal qiluv qarorini chiqarish tartibi masalalari tahlil qilingan.

Sudga huquqiy ta'sir choralarini qo'llashni so'rab murojaat qilish huquqi vujudga kelishining asosiy shartlaridan biri bu huquqiy manfaatdorlikning mavjudligidir. Huquqiy adabiyotlarda ushbu shartni huquqiy ta'sir chorasini qo'llashning asosida yotuvchi g'oya ekanligi ta'kidlanadi. Masalan, rus olimi Ye.Vaskovskiy ariza berishda huquqiy manfaatdorlikning mavjudligi protsessual huquqning asosiy vazifalari va mohiyatidan kelib chiqadi hamda sudga murojaat qilishning asosiy sharti hisoblanadi, deb hisoblaydi. Unga ko'ra hech kim o'zi uchun muhim bo'lmagan nizolarni qo'zg'atib sudlarning qimmatli vaqtini olishga haqli emas. Mazkur nuqtai-nazarga yaqin boshqa huquqshunoslarning ham fikricha (Y.Stephen, D.M.Chechot, A.N.Kojuxar, G.L.Osokina va boshqalar) ishni

qo'zg'atishning zaruriy sharti sifatida yuridik manfaatdorlik muhim ahamiyatga ega.

Nemis olimi J.Shvars (Joanna C. Schwartz) fikriga ko'ra, Yevropa prosessual huquqida aynan manfaatdorlik mavjudligi sud tomonidan arizani ko'rib chiqilishi shartlaridan biri sifatida tan olinadi. Ingliz-amerika huquqiy doktrinasida ham ayni shu institut mavjud bo'lib, manfaatdorliksiz sudlarda nizolashish imkonsizligi huquqiy adabiyotlarda keltiriladi.

Iqtisodiy protsessda ishni qo'zg'atish birinchi instansiya sudida ish yuritishning dastlabki majburiy bosqichi bo'lib, uning maqsadi manfaatdor shaxsning murojaat qilish huquqini amalga oshirishni ta'minlashdir. Shuningdek iqtisodiy sud jarayonida ish yuritishni boshlash uchun sudga murojaat qilgan shaxsning prosessual huquqiy layoqatga ega bo'lishi va sudga da'vo bilan (ariza bilan) murojaat qilgan bo'lishi lozim. Bu o'rinda vakolatli davlat organi o'ziga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bajarish maqsadida, shuningdek kelgusida agar tegishli chora ko'rilmasa zarar yetishi mumkinligidan kelib chiqib, jamiyat, fuqarolar, yuridik shaxslarning huquq va manfaati taqazo etganligi sababli sudga huquqni himoya qilish maqsadida ariza bilan murojaat qiladi. Ushbu holatda tadbirkorga qarshi huquqiy ta'sir chorasini qo'llashni so'rab murojaat qilmaslik, boshqa shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlari buzilishiga olib keladi.

Huquqiy ta'sir chorasini qo'llash bo'yicha ushbu faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan nazorat organlari mansabdor shaxslari o'zlariga berilgan vakolatlar va majburiyatlar doirasida sudga murojaat qilishadi. Bunda vakolatli nazorat qiluvchi davlat organlari ishdan bevosita moddiy manfaat ko'rmaydi. O'z xizmat funksiyalari tufayli ular davlat yoki jamiyat manfaatlarini himoya qiladilar deb tushunish lozim. Bunday manfaatdorlik nazorat qiluvchi organning faoliyati maqsadlari, inson, jamiyat va davlat manfaatlari bilan tushuntiriladi, sud qarori ayni sohalarida tegishli organning majburiyatlariga ta'sir o'tkazadi.

Huquqiy ta'sir choralari qo'llashga doir ishlar iqtisodiy protsessdagi da'vo ishlaridan sezilarli darajada farq qilishi bilan birga ma'muriy protsessdagi arizalardan ham farqli: ma'muriy ishlarda odatda davlat organi (mansabdor shaxslari) harakat (harakatsizligi) ustidan nizolashilsa, huquqiy ta'sir choralari qo'llashda ma'muriy munosabatlarning ikkinchi zaif tomoni – yuridik yoki jismoniy shaxslar harakatlari bo'yicha nizolashiladi.

Huquqiy ta'sir choralari qo'llash bilan bog'liq ishlarda, ularning mazmuniga ko'ra (moliyaviy sanksiyalar qo'llash, litsenziyani to'xtatish/tugatish, faoliyatni to'xtatish/tugatish va h.k.) davlat organlari yuridik yoki jismoniy shaxsga nisbatan ushbu choralarni (javobgarlik choralari) qo'llashni talab qiladi. Albatta, bu iqtisodiy sudga murojaat qilishga vakolatli nazorat qiluvchi organ tomonidan davlat (va jamiyat, boshqa shaxslar huquqlari, umumiy miqyosda davlatning funksiyasi sifatida) manfaatlarini himoya qilish sifatida qaraladi.

Huquqiy ta'sir choralarni qo'llashga oid ishlarda tomonlarning tengsizligi – bir tomon davlat organi ikkinchi tomon esa yuridik yoki jismoniy shaxs ekanligi ham tortishuvchanlik va tekshirish prinsiplarining uyg'unligini talab qiladi. Sudning dalillar to'plash va baholashdagi vakolatlarini faollashtirish zarurati shu bilan izohlanadiki, nazorat qiluvchi organ (arizachi) ish bo'yicha o'zi to'plagan

dalillarning yagona egasi sifatida dalillarni o'z xohishicha taqdim etishi yoki etmasligi (yashirishi, olmasligi va h.k.), ular bilan ishni hal qilishga ko'proq ta'sir o'tkazishi va isbotlash jarayonini sansalorlikka aylantirishi natijasida ishni adolatli va to'g'ri hal qilishga halaqit qilishi mumkin.

Huquqiy ta'sir choralari qo'llash bo'yicha iqtisodiy sud protsessidagi tortishuvchanlik sudning faolligi majburiyati bilan tuzatilishi kerak, ya'ni tomonlarning o'zaro tortishishida ularning avvaldan teng emasligini inobatga olib, sud dalillarni o'z tashabbusi bilan aniqlashi, yig'ishi, tekshirishi maqsadga muvofiq. Zero ushbu toifadagi ishlarda taraflarning faoliyati ularning moddiy-huquqiy manfaatlariga, sudning faoliyati esa, adolat va odil sudlovga asoslanadi.

Sud huquqiy ta'sir choralari qo'llash to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqayotganda nafaqat chorani qo'llashga asos qilib ko'rsatilgan huquqbuzarlik faktini tasdiqlovchi dalillarga, balki ushbu huquqbuzarlik tarkibiga (masalan, shaxsning aybi mavjud yoki mavjud emasligiga) alohida e'tibor qaratishi kerak. Shuningdek, har bir holatda, masalan moliyaviy jarima qo'llashda soliq to'lovchini soliq qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlikka tortish tartibi, yengillashtiruvchi holatlarning mavjud yoki mavjud emasligini ham o'rganilishi lozim.

Ko'p holatlarda ko'rsatilgan dalillar davlat organi tomonidan taqdim qilinmaganda yoki taqdim qilingan dalillar yetarli bo'lmay qo'shimcha dalillar kerak bo'lganda davlat organi uni taqdim etmasa, sudning harakatlari cheklangan bo'ladi, ya'ni u holda sud faqat arizani qanoatlantirishni rad etishi mumkin. Zero, ushbu dalillarsiz, ularni o'rganmay va tekshirmasdan turib ishni hal qilib bo'lmaydi. IPK 69-moddasiga asosan sud, agar dalillar yetarli emas deb hisoblasa, tomonlarga qo'shimcha dalillar taqdim etishni so'rashi mumkin. Bu tashabbus huquqi sudning dalillarni to'plash va isbotlash jarayonidagi vakolatini va imkoniyatini kengaytiradi, biroq huquqiy adabiyotlar sudga dalillar to'plashda bundan ham kengroq tashabbus vakolati berishilishi maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi. Zamonaviy protsessual huquqiy adabiyotlarga ko'ra, masalan nemis olimi G.Ryulga ko'ra protsessda dalillarni, shu jumladan qo'shimcha dalillarni o'z tashabbusiga ko'ra to'plash, talab qilib olish va aniqlash sudning muhim vakolati bo'lib, bu ishni adolatli hal qilishga ta'sir qiladi va bunday vakolat sudga kengroq shaklda taqdim etilishi lozim.

Ayniqsa, tadbirkorlik sub'yektiga huquqiy ta'sir chorasini qo'llash doim uning huquqlarini cheklashga olib kelishini hisobga olsak, bu juda muhimdir. Shuni inobatga olgan holda, iqtisodiy sudlarga huquqiy ta'sir choralari qo'llash to'g'risidagi ishlarni adolatli, asosli va to'g'ri hal etish uchun lozim deb topgan dalillarni o'z tashabbusi bilan har qanday huquq sub'yektidan talab qilib olish huquqini berish maqsadga muvofiq.

Ayrim mutaxassislar davlat organlari o'rtasida kelishuv mumkin emasligini ma'muriy huquqiy munosabatlarning o'ziga xosligi bilan izohlashadi. Bu borada rus olimi V.Zaripovning fikricha sudda ma'muriy munosabatlar yo'q (ular suddan tashqarida bo'ladi), uning o'rniga taraflarning protsessual jihatdan tengligi haqidagi munosabatlar mavjud bo'lib, ishning barcha ishtirokchilari qonun va sud

oldida tengdirlar. Shu boisdan bu borada kelishuv bitimi tuzishga hech qanday to'siq mavjud emasligini ta'kidlaydi.

A.Balashov esa ta'sir choralari qo'llash kabi ommaviy huquqiy xarakterdagi nizolarni sudda hal qilishda kelishuv bitimini huquqiy nizoni to'liq bartaraf etish sifatida emas, aksincha uni hal qilishga urinish: bo'lib to'lash, qisman to'lashga, muddatlarni belgilashga, chora ko'rishga sabab bo'lgan huquqbuzarlikni va oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan yechim sifatida kiritilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Ayrim huquqiy ta'sir choralari, aynan banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish, moliyaviy sanksiyalarni qo'llash, litsenziyalarni to'xtatib turish kabi ta'sir choralari bo'yicha kelishuv bitimi tuzishga imkon berish maqsadga muvofiq. Chunki bu tomonlar kuchi va vaqtini tejabgina qolmasdan, huquqbuzarlik oqibatlarini tezroq bartaraf etish, jarimalarini kelishib to'lash va ta'sir choralari qo'llash maqsadlariga osonroq erishish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **“Huquqiy ta'sir choralari qo'llash to'g'risidagi qaror qonuniyligini nazorat qilish va ijrosini ta'minlash”** nomli uchinchi bobida huquqiy ta'sir choralari qo'llash to'g'risidagi qaror ustidan shikoyat qilish asoslari va tartibi, huquqiy ta'sir choralari qo'llash to'g'risidagi qarorlarning ijrosini ta'minlash, huquqiy ta'sir choralari qo'llashning zamonaviy tendensiyalari (sun'iy intellekt, qonunchilik kelajagi)ni tadqiq etadi.

Bugungi kunda sud ishlarini yuritishda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, taraflar vakillarining oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lishi (ularning bilimlari jarayonni tezlashtirishi uchun) zarurligini belgilash, soddalashtirilgan tartibda ish yuritish, kelishuv bitimi yoki mediatsiya kelishuvini tuzish va boshqalar turli doiralarda taklif etilmoqda. Shunday bo'lsada, birinchi instansiya sudi tomonidan qabul qilingan qaror ustidan shikoyat berish o'z mohiyatini yo'qotmaydi.

Protsessualist olim M.M.Mamasiddiqovning fikricha, qonun talablariga rioya qilinmagan, muayyan darajada xatoliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa bu kabi ishlar apellyatsiya tartibida ko'rib, aniqlanishi va tuzatilishi mumkin.

Ayrim olimlarning fikricha (Esanova Z.N., Xabibullayev D.Y., Salimova I.M.) apellyatsiya tartibida ish ko'rishning asosiy mazmuni birinchi instansiya sudining qarorlarini qonunda belgilangan asoslar va muddatlarga muvofiq, vakolatli organlar tomonidan apellyatsiya tartibida qayta ko'rilishiga aytiladi. Bizning fikrimizcha, apellyatsiya yoki kassatsiya shikoyati berilishi keyingi instansiyalarda ishni qayta ko'rish uchun muhim bosqich hisoblanadi. Chunki, qaror qabul qilinganidan so'ng uni o'zgartirish yoki bekor qilishning yagona yo'li bu apellyatsiya yoki kassatsiya shikoyatini berish hisoblanadi.

Qayd etish lozimki, ayrim Yevropa mamlakatlari qonunchiligida nizoni qayta ko'rib chiqish uchun O'zbekiston milliy qonunchiligidan boshqacha yondashuvni ko'rish mumkin. Masalan, Polshada prosesning davomiyligi muhim ahamiyatga ega. Birinchi instansiya sudining ajrimi og'zaki e'lon qilinganidan so'ng, tomonlar yetti kun ichida yozma ravishda asoslash uchun ariza berishlari shart. Sudlarda uni yozish uchun ikki hafta bor (ikkinchi instansiya sudi ham), lekin bu muddat uzaytirilishi mumkin. Yozma asoslarni taqdim etgandan so'ng, sudga apellyatsiya

berish uchun ikki hafta bor. Agar yetkazib berish muddatini qo'shsak, qaror ustidan shikoyat qilishning o'zi taxminan ikki oy davom etishi mumkin.

Huquqiy ta'sir choralari qo'llash to'g'risidagi ishlarni ko'rishda iqtisodiy sud nafaqat nizoni hal qilishi balki nazorat qiluvchi organlar faoliyati ustidan sud nazoratini amalga oshirish funksiyasini bajaradi. Chunki, ommaviy huquqiy munosabatlar fuqarolik-huquqiy munosabatlardan farq qilib, bunda taraflar teng ishtirokchilardan tarkib topmaydi. Bir tarafda doimo ommaviy hokimiyat vakolatlari mavjud bo'ladi. Sud esa, ularning huquq va majburiyatlari tengligini, muvozanatini ta'minlashga, nazorat organi qarorlarini huquqiy maydonda bo'lishiga erishishni ta'minlaydi.

Huquqiy ta'sir choralari qo'llash bo'yicha sud qarori qabul qilingandan so'ng u ijroga qaratilishi bilan muhim. Bunda ilgari ayrim mavhumliklar mavjud bo'lganligini ko'rsatish lozim. Masalan, sud qarori va ijro varaqasi da'vogar tomonidan olinsada, u ijroga qaratilmagan holatlar uchrardi. Bu esa, sun'iy ravishda sudga murojaat qilishlik, pirovard natijada uning oqibatlaridan manfaaddor bo'lmaslik, turli korrupsion tarkibni keltirib chiqarishi mumkin edi. Bugungi kunda axborot-kommunikasion texnologiyalarining hayotimizning barcha jabhasi, shu jumladan sud tizimiga kiritilishi, sun'iy intellektni qo'llanilishi bu boradagi bir qator muammolarni samarali hal qilishga imkon beradi.

